



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIM

Baltayev Xudayberdi Ataboyevich

O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti SHG'HO fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Zamonaviy pedagogik deontologiya va kompetentlik predmetini anglash ta'limning hozirgi holati va o'qituvchiga qo'yiladigan talablarni baholashga asoslanadi. Ushbu maqola kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim masalalariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *O'qituvchi, kasbiy va shaxsiy o'sishi, shaxsiy kompetentsiya, integral natija, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim.*

Shaxsning rivojlanish traektoriyasi - shaxsning "kasbiy rivojlanishi" va o'qituvchining "kasbiy va shaxsiy o'sishi" bo'yicha rivojlanish dinamikasini tushunish uchun zarur bo'lgan toifalar ochib berildi; rivojlanish bosqichlari va o'sish inqirozlari ko'rib chiqiladi;

O'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishi - shaxsiy kompetensiyasining integral natijasi xarakteristikasi berilgan; uning tuzilishi va mazmuni ochib beriladi; o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

Professional va shaxsiy o'sishning ob'ektiv, sub'ektiv resurslari, shaxsiy salohiyat to'g'risida savollar aniqlandi; o'sish muammolari va resurslariga, o'qituvchi shaxsining integral va ekspresiv-instrumental xususiyatlariga, o'qituvchining shaxsiy salohiyatini realizatsiya qilish shartlariga va o'qituvchining ta'lim muhiti bilan o'zaro ta'siri strategiyasiga e'tibor qaratiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - o'quvchi ta'lim jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalar o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta'limdir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim har bir o'quvchining hozirgi zamon talablariga javob beradigan, kelajakda barkamol inson bo'lib yetishishiga imkon beradigan ta'limdir. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi tegishli o'quv fanidan yuqori baho olish uchungina emas, balki o'zligini anglagan holda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga intiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida o'zligini anglagan holda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan inson deganda, dunyoqarashi keng bo'lgan, turli sohalarda fikr-mulohaza yurita oladigan va muloqotga kirisha oladigan, ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay oladigan shaxs tushuniladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim ikki yo'nalishdagi kompetensiyalarni, ya'ni xususiy kompetensiyalarni va tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Xususiy kompetensiyalar bevosita har bir o'quv fani orqali amalga oshiriladi. Har bir o'quv fani o'ziga tegishli bo'lgan xususiy kompetensiyalarga egadir. Masalan, fizika fanidan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan minimal talablar fizika bo'yicha egallashi zarur bo'lgan xususiy kompetensiyalarni ifodalaydi. Ishlab chiqilgan va



tajriba-sinovdan o'tkazilayotgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS loyihalarida xususiy kompetensiyalar o'z o'rnini topgan.

Tayanch kompetensiyalarga ega bo'lish deganda, inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi – o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash tushuniladi.

Olimlar tomonidan tayanch kompetensiyalar quyidagi olti turga bo'lib berilgan: kommunikativ kompetensiya; axborot bilan ishlash kompetensiyasi; shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi; ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; umummadaniy kompetensiyalar; matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning har birini shakllantirishda har bir o'quv fanining o'z o'rne bor. Quyida misol tariqasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida fizika o'quv fanidan tayanch kompetensiyalar qanday shakllantirilishi ko'rsatib beriladi.

1. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish barcha o'quv fanlariga, shu jumladan, fizika faniga ham tegishlidir. Bunda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida o'quvchilar o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon qilish, o'zaro muloqotga kirishish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, to'g'ri yo'l tutgan holda ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta olish ko'nikmalari shakllantira boriladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda «Aqliy hujum», «Klaster», «Blits savollar», «Modifikatsiyalangan ma'ruza», «Muammoli vaziyatni o'rganish», «Kichik guruhlarda ishlash», «Har kim har kimga o'rgatadi», «Fizik diktant», «Debat» kabi innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash samara beradi.

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishda ham fizika fanining o'rne kattadir. Fizikadan o'tilgan mavzularni o'rganish jarayonida maktabda va maktabdan tashqari vaqtlarda o'z ustilarida ishlab, kompyuter, internet, elektron pochta kabi axborot manbalaridan foydalana olish, media vositalaridan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish va ularni qayta ishlash, ma'lumotlar bazasini yarata olish bo'yicha ko'nikma va malakalari shakllana boradi.

3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda fizikadan o'tilgan mavzularni o'zlashtirishlari uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashga o'rgatila boriladi. Ora-chora u yoki bu mavzuni o'qib, chala tushungan holda mavzuni yoddan aytib berish va ko'zlangan bahoni olish orqali fizikani o'rganib bo'lmaydi. Bunda «yaxshi» va «a'lo» baho olish uchungina emas, avvalom, o'zi uchun, shaxs sifatida o'zini rivojlantirish uchun o'qib-o'rganish zarur. O'quvchilar darsda o'tilgan har bir fizik qonun, ta'rif, fizik hodisa, fizik kattalik, formulalarning mohiyatini tushunib olishlari, ulardan fizik jarayonni bayon etishda, masalalar yechishda va o'rganganlarini ijtimoiy hayotlarida qo'llay olishlari lozim.

O'quvchi o'z-o'zini rivojlantirishda o'qishdan tashqari vaqtlarda ham fizikaga oid qo'shimcha adabiyotlarni, jumladan, qiziqarli fizikaga oid kitoblarni o'qish ham katta



ahamiyatga egadir. Bu bilan o'quvchi litsey, kollejda o'qib yurgan davrida intellektual kamolotga erisha boradi.

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fizika fanining ham o'rni bor. Jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun shaxs boy dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Inson dunyoqarashini kengaytirishda fizikaning ahamiyati kattadir. Fizikadan talab darajada bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kelajakda jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, kasbiy mavqeining o'sishiga intilishiga yordam beradi.

5. Umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishda fizik ixtirochilar, fizika fanining shakllanishiga va taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk olimlar, yurtimizda yetishib chiqqan buyuk allomalarning fizika rivojlanishiga qo'shgan hissalar haqida ma'lumotlar berib borish katta ahamiyatga ega.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasini shakllantirish uchun matematika fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarni fizikani o'rganishda qo'llay olish, jumladan, fizika masalalarini yechishda, laboratoriya ishlarini va tajribalarni o'tkazishda matematik hisob-kitoblardan foydalana olishga o'rgatish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar kelajakda kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olishda, shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritishda, kasbiy faoliyatlarida turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni tayyorlashda, fan-texnika yangiliklarini tahlil qilish va ulardan foydalanishda akademik litsey, kasb-hunar kollejida fizikadan o'rganganlarini qo'llay olishlari ko'zda tutilishi kerak.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida har bir fan bo'yicha DTSda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar ham egallana boriladi, ya'ni tegishli fanlardan xususiy kompetensiyalar ham shakllantirila boriladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim natijasida dunyoqarashi keng, intellektual barkamol, kasbiy mahorati yuksak, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan avlod yetishib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika
2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili. Monografiya. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184 b.)